

SHARQ VA G'ARB ADABIY JARAYONIDA HIKMATLARNING BADIY-ESTETIK O'RNI VA TALQINI

Rayhona KENJAYEVA,
ORCID: 0009-0000-8398-1032
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs tayanch doktoranti.
Toshkent. O'zbekiston.
E-mail: rayhonakenjaye4@gmail.com

Annotatsiya. Ilmi hikmat mohiyatan islomiy, falsafiy, tasavvufiy haqiqatlar, aqoidlar aks etgan qomusiy ilmdir. Qadim xalq og'zaki ijodi asosida maydonga kelgan tanbehlar, dono xulosalar XII asrga kelib janr darajasiga ko'tarildi. Islom xalqlarining tabiatida hikmatlarga bo'lgan yaqinlik, halol hayot kechirish mezonlari sifatida ijobiy qabul qilish buyuk ijodkorlarimizning dono baytlarini ham hikmat darajasiga ko'tardi. Adabiy jarayonda hikmatlarni mumtoz adabiyotimizning deyarli barcha namoyondalari ijodidan topishimiz mumkin. Shuningdek, G'arb adabiyoti aforizmlari mazmuni Uilyam Blakening hikmatlari asosida tahlil qilingan. Maqolada ularning ayrimlarini mazmun, badiiyat va yozuvchining estetik maqsadi nuqtayi nazaridan tahlilga tortamiz. Sharq adabiyotidagi islomiy axloq va G'arb adabiyotidagi falsafiy-demokratik ruhning ustuvor ifodalanishi hikmatlar orqali ochib berilgan. G'arbcha paradoksallik va sharqona axloq tamoyillari qiyos uchun asos vazifasini bajargan.

Kalit so'zlar: hikmat, Sa'diy, genesis, mutatsiya, maqol, so'fiy, Jomiy, Xo'qandiy, Abdulla Avloniy, nodon, kibr, nafs, Uilyam Blake, Do'zax va Jannat nikohi.

THE ARTISTIC-AESTHETIC PLACE AND INTERPRETATION OF WISDOM IN THE EAST AND WEST LITERARY PROCESS

Raykhona KENJAYEVA,
ORCID: 0009-0000-8398-1032
University of Uzbek Language and Literature
2nd year basic doctoral student.
Tashkent. Uzbekistan.
E-mail: rayhonakenjaye4@gmail.com

Annotation. The science of wisdom is essentially an encyclopedic science that reflects Islamic, philosophical, mystical truths and beliefs. The rebukes and wise conclusions that emerged on the basis of ancient folk oral literature rose to the level of a genre by the 12th century. The closeness to wisdom in the nature of Islamic peoples, their positive acceptance as criteria for living an honest life, also raised the wise verses of our great creators to the level of wisdom. In the literary process, we can find wisdom in the works of almost all representatives of our classical literature. Also, the content of aphorisms of Western literature is analyzed based on the wisdom of William Blake. In the article, we analyze some of them from the point of view of content, artistry and the aesthetic purpose of the writer. The predominant expression of Islamic morality in Eastern literature and the philosophical-democratic spirit in Western literature is revealed through wisdom. Western paradoxicality and oriental moral principles served as the basis for comparison.

Keywords: wisdom, Sa'di, genesis, mutation, proverb, Sufi, Jami, Khoqandi, Abdulla Avloni, ignorance, arrogance, ego, William Blake, The marriage of Hell and Paradise.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ МЕСТО И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МУДРОСТИ В ЛИТЕРАТУРНОМ ПРОЦЕССЕ НА ВОСТОКЕ И ЗАПАДЕ

Райхона КЕНДЖАЕВА

ORCID: 0009-0000-8398-1032

Университет узбекского языка и литературы

Докторант 2-года обучения.

Ташкент, Узбекистан.

E-mail: rayhonakenjayeva4@gmail.com

Аннотация. Наука о мудрости по своей сути является энциклопедической наукой, отражающей исламские, философские, мистические истины и верования. Упреки и мудрые выводы, возникшие на основе древней народной устной литературы, к XII веку достигли уровня жанра. Близость к мудрости в природе исламских народов, их позитивное восприятие как критерия честной жизни, также возвысили мудрые стихи наших великих творцов до уровня мудрости. В литературном процессе мудрость можно найти в произведениях почти всех представителей нашей классической литературы. Также, на основе мудрости Уильяма Блейка анализируется содержание афоризмов западной литературы. В статье мы анализируем некоторые из них с точки зрения содержания, художественного замысла и эстетической цели автора. Преобладающее выражение исламской морали в восточной литературе и философско-демократического духа в западной литературе раскрывается через мудрость. Западная парадоксальность и восточные моральные принципы послужили основой для сравнения.

Ключевые слова: мудрость, Саади, генезис, мутация, пословица, суфий, Джами, Хоканди, Абдулла Авлони, невежество, высокомерие, эго, Уильям Блейк, брак ада и райа.

Kirish. Har bir millatning o'z qadriyatlarini, azaliy urf-odatlarini, diniy va dunyoviy qarashlarini ularning adabiyotida munosib o'rinni egallaydi. Ayni holda adabiyot ham mana shu ma'rifat va ma'naviyat bulog'idan qongan holda maydonga keladi. Hikmatlar mazmunan butun insoniyatga qaratilgan yo'l-yo'riq, haqiqatlar kaliti bo'lsada, janr jihatdan faqatgina islom olami adabiyotini o'z ichiga oladi. Genezis nuqtayi nazaridan butun turkiylar otasi – Qo'rqut otaning tanbeh so'zlariga borib taqaluvchi ushbu janr davrlar o'tishi bilan mutatsiyaga uchrab turli nomlar va mazmun kasb etib keldi. Diniy-tasavvufiy, tarbiyaviy mazmun va g'oyani ifodalash uchun manoqib va hikoyatlar nasrda yaratilgan bo'lsa, hikmat, ilohiy, davriya kabi janrlar she'riy usulda bo'lgan. Hikmat janri turk xalq adabiyotida "ilohiy", arablar va forslar adabiyotida "davriya", boshqa turkiy xalqlar ijodida esa "hikmat" deb nomlanadi. Hikmat janri og'zaki ijodda ham, yozma adabiyotda ham har xil atamalar bilan nomlanib kelinadi va ularning barchasi mazmunan hikmatni tashkil etadi: maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so'z, ibora, ta'bir, aforizm, otalar so'zi, ota-bobolardan qolgan so'z, abushqa so'zi, mashoyixlar so'zi, donolar so'zi, hikmatlar so'zi, burungilar so'zi, ilgari o'tgan yaxshilar so'zi va hokazo [Shomaqsudov, 1990, 7].

Materiallar va metodlar. Yozma adabiyotdagi hikmatlarning xalq og'zaki ijodidagi hikmatlardan farqi xalq tajribasiga tayangan holda muayyan bir shaxs – muallif tomonidan yaratilganligida va islom dini kirib kelishi hamda uning ta'siri natijasida mazmunning diniy-tasavvufiy aqoidlarga moslashganidir. Yuqoridagi ilmiy asoslardan kelib chiqib maqol, matal, sav, otalar so'zi, aforizm, hikmatli so'z kabi pandnomalarni hikmat mazmuni va maqomi ostida birlashtirib, ularni mazmunan quyidagi turlarga bo'lib o'rganmoq mumkin:

1. Hikmat janrining asl na'munalari: diniy-tasavvufiy hikmatlar; axloqiy-tarbiyaviy hikmatlar; ijtimoiy-falsafiy hikmatlar.

2. Hikmatga aylangan baytlar.

Yuqoridagilarning uchasi bevosita hikmatning janr xususiyatlarini o'zida aks ettirgan namunalar bo'lsa, hikmatga aylangan baytlar turli ijodkorlar asarlari tarkibidagi hikmatomuz baytlar bo'lib, xalq orasida xuddi maqollar singari og'izdan-og'izga ko'chib hikmat darajasiga ko'tarilgan.

Masalan, Navoiyning ushbu baytlari to'planib, alohida hikmatnoma shaklida "Hikmatli so'zlar", "Navoiydan 100 hikmat" nomlari ostida nashr etilgan. Bunday hikmatlarni juda ko'plab mumtoz adiblar ijodidan ham topish mumkin. Quyida mana shunday hikmat darajasiga ko'tarilgan, zaminiga chuqur, o'tkir va rad etib bo'lmaz olamlar haqiqati singdirilgan baytlar va misralarni, undan foydalanish mahorati va badiiyatini, qiyosiy, tarixiy, biografik va tipologik metodlar orqali ko'rib chiqamiz.

Natijalar. XIII–XIV asrlarda fors adabiyotida ham hikmatlardan unumli foydalanilgan. Bunga yorqin misol sifatida shayx Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini aytish mumkin. Asarning yozilishi haqida so'zlar ekan Sa'diy debocha qismida "... bir turkum nodir hikoyalar, masallar, hikmatlar, she'rlar, shuningdek, o'tmish podshohlarning hayot va odatlari haqida bahs etadigan rivoyatlarni ushbu kitobimga to'pladim. Aziz umrimning bir qismini shu ishga sarfladim..." [Sa'diy, 1968, 18] deya asardagi janrlar turkumiga izoh berib ketadi. Asarda hikoyatlar keltirilib, shu hikoyat mazmunini boyitgan she'riy hikmatlar orqali xulosa beriladi.

Sa'diy "Podshoh va qaroqchi bola" hikoyatini keltirib, voqealarning sodir bo'lish vaziyatiga qarab o'nta she'riy hikmat keltiradi. Hikoyatning tub mohiyatiga nazar tashlansa, unda qonida buzuqlik bor insonni yosh bo'lishiga qaramay qancha tarbiya qilsang ham asliga tortishi, undan yaxshilik chiqmasligi bayon qilingan. Asirga tushgan qaroqchi bolani yaxshi insonlarga yondashtirib, yomonliklardan tiyilib, birovlar mulkiga ko'z olaytirmasdan yashashga o'rgatish, uning keying hayotini munosib va halol davom ettirishi uchun qilingan yaxshilik, himmat yomonlik bo'lib qaytgan qalamga olinadi va bu hol (yomonga qilingan yaxshilik) hikmatlarda yaxshi insonga yomonlik qilishdek gunoh, nobakor amalga qiyos qilinadi:

Sho'ra tuproq yerdan gul unib chiqmas,
Don sochmoq – ovora bo'lmoq demakdir.

Yaxshiga yomonlik qilmoq misoli

Yomonga yaxshilik qilmoq demakdir [Sa'diy, 1968, 29].

Ko'rinib turganidek, Sa'diy hikmatlarida hikoyatlardagi go'zal mazmunni, badiiyatni chin ohor bilan tashbeh asosida qayta jonlantirgan. Sho'rxok yerlar – tarkibida juda katta miqdorda tuz bo'lgan sahro, cho'l, quruq dasht tuproqlari bo'lib, bunday tuproqdan hech giyoh ham o'smaydi. Tuproqning botiniy mazmuniga e'tibor qaratsak, Alloh insonlarni kamtar va kamsuqum tuproqdan yaratdi. "Ul tuproqda suvi tebiz, urung, qora, suchuk, achig', sarig', yashil, qizil, ko'k, qatig', yumshog' va arig', arig'siz, totlig'siz – qamug' bor erdi. Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar, ...kimi ezgu, kimi essiz, kimi qatig' ko'ngulluk, kimi yumshoq ko'ngulluk" [Rabg'uziy, 1990, 16]. Aynan shu toifadagi ko'ngli qattiq, axloqi buzuq, essiz insonlarga sen o'zingda bor qancha yaxshilikni qilsang ham ular senga o'zida bori bilan (yovuzlik) bilan javob qaytarishi hikmat badiiyatiga singdirilgan. Shayx Sa'diy hikmatlardan bo'yoqdorlikni oshirish, mazmunni botiniy va zohiriy haqiqatlar, voqealar bilan muqoyasa qilish orqali ta'sirni kuchaytirish maqsadida foydalangan.

Buyuk so'fiy va olim Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ham Rabg'uziy va Sa'diy uslubida o'n ikkita nasriy hikmat keltiriladi. Har biriga mazmunini boyitib shuncha miqdorda she'riy hikmat bilan sayqal beradi. Ularning to'qqiztasi "Donolar hikmati" deb nomlangan ikkinchi ravzada, uchtasi "Shohlik va adolat" deb nomlangan uchinchi ravzada keltiriladi.

Hikmat: «Uch toifadan uch xil ish yomon keladi: podshohlardan – tezlik, donishmandlardan – molga xirs, badavlatdan – baxillik.

Hikmat:

Uch ishni qoralar hakim qalami:

Tezlik qilsa qudratli podsho,

Xasis bo'lsa badavlat kishi,

Mol-u mulkka xirs qo‘ysa dono [Jomiy, 2007, 22].

Abdurahmon Jomiy nasrda, xuddi bugungi kun o‘quvchilari biladigan aforizmlar singari bergan hikmatlari mazmunini she‘riy to‘rtlikka ham solgan. Bu esa so‘fiyning buyuk shoir va chinakam faylasufligidan ham dalolat beradi. Bilamizki, Abdurahmon Jomiy “Malomatiya” tariqatining namoyondasi bo‘lishi bilan birga, so‘fiylikda ham, shoirlikda ham, ilmi holda ham, olimlikda ham “oltin o‘rtalik”ni saqlay olgan. Yuqoridagi hikmat mazmunidan ham shuni anglash qiyin emas. Jomiy tilga olayotgan uch toifaga e‘tibor qaratamiz. Birinchisi – “podshoh”. Xalqimiz orasida “Alloh nazari tushgan, unga kenglik bergan kishi xalqqa rahnamo bo‘ladi”, - degan gap bor. “Badavlat” – Razzoq tomonidan rizqi mo‘l berilgan kishi. Olim – ilm sohibi, unga amal qiluvchi, Allohning buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysinuvchi inson. Demak, bu uch toifa Allohning “nazar”da, “rizq”da va “ilm”da siylagan va suygan kishilari, butun bashariyatni muvozanatda saqlab turuvchi yuqori qatlami. Ushbu toifalarning botinni unutib, zohir tomon borishi, nafsga yengilishi Allohning ne‘matlariga isyoni bo‘lib, eng katta yomonlik, qoralik sifatida baholanmoqda. Shohning shoshqaloqligi butun boshli davlat yoki xalqlarning tanazzuliga sabab bo‘ladi. Boyning xasisligi esa undan foni rizqning qaytarib olinishiga olib keladi. Islom dinida ham saxiylik va sadaqa qilish mulkni kamayishiga emas, ko‘payishiga yetaklashi, baraka ato etilishi, mulki ziyoda bo‘lishini tasdiqlovchi bir qancha o‘nlab hadislar, minglab tarixiy haqiqatlar aks etgan. Olim kishining boylikka, mol-dunyoga mehr qo‘yishi undan Alloh bergan ko‘rkdan ayrilishiga olib keladi. Demak, Jomiy hikmatlarda kashf-shuhud bilan birga aqlu ilmni bir nuqtada kesishtirgan.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “Aqsomi ilm” haqida fikr yuritib hikmatni alohida fan sohasi sifatida e‘tirof etadi va saodatga boshlovchi vositaligini ta’kidlaydi: “Ilm diniy va fanniy qismlar ila ikkiga bo‘linur. Diniy kishi bo‘lmak uchun ulumi diniya o‘qumak ila barobar *hisob, handasa, tarix, hikmat, kimyo, tib, ziroat* ilmlari kabi fanniy ilmlarni ham bilmak, chin olim bo‘lmak lozimdur. Chunki bu ilmlarning ikkisi ham dunyo va oxiratomiz, hayot va saodatimiz uchun eng kerakli narsalardur [Avloniy, 11]”.

Shuningdek, ushbu asar badiiyatiga nazar tashlaganimizda ham Avloniy har bir maqolatdan so‘ng mazmunni qamrab olgan she‘riy hikmatlardan foydalangan. Masalan, “Anoniyyat” haqidagi maqolatdan so‘ng ushbu she‘riy hikmat keltiriladi:

Azozil kibr qildi bo‘ldi shayton,
Takabburlik qilurmi oqil inson?
Tavozu’ pasha qil, aslingni qil yod,
Vujuding xok erur, ey odami zod [Avloniy, 31]

1910-yildan 1926-yilga qadar Qo‘qon shahrida yangi usul maktabi ochgan Mirzo Xayrulloxon Xo‘qandiy ham o‘z maktablarida aynan hikmatlar orqali xalq farzandlariga ta’lim va tarbiya bergan. Uning o‘zi ham “Tuhfat-ul atfol” (“Bolalar sovg‘asi”) deb nomlangan “Hikmatnoma” yozib, ushbu asardan amaliyotda uzoq yillar davomida foydalanib kelgan. Asar tuzilish jihatdan yigirmata hikmatdan iborat. Hikmatlar, dastavval, o‘quvchiga nasriy xitob tarzida beriladi va har bir nasriy hikmat yakunida mazmunni jamlagan bir baytdan iborat she‘riy hikmat keltiriladi:

5-hikmat:

Ey aziz! Har so‘zda zinhor tilingni va har ishda qo‘lungni soqlag‘il.
Ey aziz! Yamon hamnishinlardin yiroq bo‘lub alar birla suhbat tutmag‘il.

Bayt:

Fitroki g‘amga tashla, jon bulbulin kesib bosh
Zog‘ ichra aylag‘uncha oltun qafasda hamroh [Xo‘qandiy, 1992, 8].

o‘quvchi nasriy hitobdagi hikmat mazmunini she‘riy hikmatda yanada boyitadi. Nasrdagi mazmun tushunarli bo‘lgani holda e‘tiborimizni bayt mazmuniga qaratamiz. Bayt mazmunidan ma’lum bo‘lishicha, bulbul – jon, ya’ni ruhni o‘zida ifodalagan. Xalq og‘zaki ijodida ham bulbul obrazi juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Uning ovozi shirador, yoqimli, honishi, nolasi insonlarni mast qiladigan ajib qush, gul oshig‘i bo‘lib, ushbu xususiyatlar majoziy ma’no kasb etib, ezgulikka,

yaxshilikka intiluvchi, boshqalar uning suhbatidan, soʻzlaridan rohat oluvchi donishmand, Yaratganga (gulga) oshiq soʻfiy maʼnosida qoʻllangan. Bayt mazmunida ham huddi shunday bulbul – dono, oqil insonning ruhi maʼnosida qoʻllangan.

Zogʻ (Qargʻa) obrazi ham anʼanaviy obrazlar sirasiga mansub boʻlib, nodon inson nazarda tutilgan. Mumtoz adabiyotimizning goʻzal naʼmunalarida qargʻalarning turli xususiyatlaridan kelib chiqib har xil maʼnolarni koʻzda tutuvchi majozlar yaratilgan.

Qoraligi – buyuklik, ichi qoralik, nodonlik, oʻlim, kibr, manmanlik;

Qagʻillashi – yaxshi va yomon xabarlarini insonlarga yetkazuvchiligi;

Uzoq umr koʻrishi – insonlarni yer yuzida qilayotgan amallarini gʻaybga yetkazib beruvchi [Muhammadiyeva, 2026, 58], uzoq yil yashab aqli toʻlgan, oq-qorani ajratadigan donishmand; Qobilga ustoz – ilm va aql egasi; "Ibrohim (a.s.) va toʻrt qush", "Nuh (a.s.) va yerning xabariga joʻnatilgan qargʻa" voqeasidan – nafs va xiyonat timsoli sifatida badiiy adabiyotga kirib kelgan.

Umumiy tahlillardan xulosa chiqaradigan boʻlsak, hikmatda nafsiga taslim boʻlgan nodon, kibrli insonlar bilan oltindan boʻlgan eng goʻzal xonada xuddi qafasdagidek qamalib qolsang ham u bilan suhbatlashishdan koʻra oʻlim senga afzaldir. Mutakabbir, nodon birla suhbat qurish oqibati Xoʻja Ahmad Yassaviyning quyidagi hikmati mazmuniga singdirilgan:

Ayo doʻstlar, nodon birla ulfat boʻlub,

Bagʻrim kuyub, jondin toʻyub, oʻldim mano.

Toʻgʻri aytsam egri yoʻlga boʻyin toʻlgʻar,

Qonlar yutib gʻam zahriga toʻydim mano [Yassaviy, 1991, 30].

Xoʻqandiyning "Tuhfat-ul atfol" darsligi islomiy, maʼrifiy va badiiy ilm bilan bir qatorda yuqori darajadagi amaliy metodikani ham oʻzida jamlagan deyish mumkin. Hikmatlarni tahlil qilish orqali oʻquvchilar teran va boy mazmunni bayt va nasrda ifodalanishini, mazmunni boyligi, badiiyatning nasr va nazmdan qay birida chuqur ekanligini taqqoslab oʻrganadilar. Badiiy jihatdan asar ramziy va majoziy obrazlar bilan boyitilgan. Masalan, nasrdagi yomon kishilarga ishora sifatida baytda "zogʻ", yaxshi insonlar esa "bulbul" majoziy obrazlaridan foydalanilgan. Bu esa taʼsir kuchini oshirish, ilmiy savodxonlik, maʼnaviy dunyoqarashni kengaytirish va albatta, badiiy-estetik zavq olishga xizmat qiladi.

Muhokama. Bugungi modernizm sheʼrlarining aksariyatida, ayniqsa, Rauf Parfi, Fahriyor ijodining katta qismida ham Yassaviy hikmatlari va tasavvufiy qarashlarga bot-bot murojaat qilingan. Fikrimizcha, tasavvufni oʻrganmay turib ushbu mazmundagi modern sheʼrlarni tahlil qilishning imkoni yoʻq. Masalan, Rauf Parfining "Turkiston yodi" sheʼri buning yaqqol naʼmunasidir:

"Dunyo mening degonla..." Nido kelur

"Karkas qushdek" qadim soʻzlar jarangi

"Yolgʻon daʼvo qilganlar..." soʻzlar shoir

"Oqni qaro degonlar..." ayting kimlar

Maqbara boshimga yiqilar hozir,

Yana tovush «Harom yegan hokimlar... [Rauf Parfi, Turkiston yodi]

Sheʼr mazmunidan maʼlumki, Rauf Parfi Yassaviy misralariga murojaat qilgan holda, mustabid tuzum amaldorlarining jirkanch qabihliklari, mol-dunyoga boʻlgan tashnaligini maʼnaviy tanazzulning bosh sababi deb hisoblamoqda va ularni "oʻlimtikxoʻr Karkas qush"ga qiyoslamoda. oʻsha davrda siyosiy tuzum buni oshkora aytishga imkon bermaganligi bois Rauf Parfi mazmunni hikmatlar niqobiga oʻragan. Yashirin parda orqali dardu alamlarini ifodalagan. Yassaviy dardini XX asr xalq dardiga koʻchirgan. Aslida Rauf Parfi ham Yassaviy kabi nafs bandalarini, ularning qilmishlarini qoralamoqda. Aytish mumkinki, Yassaviy tariqatining nazmuni barcha davrlarga mos, barcha davrlar adabiyotining dolzarb mazmunini oʻzida aks ettirgani bois uni, hatto, modern adabiyoti ham chetlab oʻta olmaydi.

Gʻarb adabiyotida ham hikmatlar katta taʼsir kuchiga ega boʻlib oʻtkir mushohada yuritishni talab qiluvchi janrdir. Ular Kunbotish adabiyotida "Proverbs (maqol, hikmat), wisdoms (hikmat),

aphorisms (hikmatli soʻz), maxim (matal), saying (maqol), adage (naql), saw dictum (hikmatli soʻz), precept (nasihat) kabi atamalar bilan nomlanadi. Jeym Geary oʻzining "The world in a phrase" asarida aforizmlarning asosiy quyidagi besh xususiyatni oʻzida jamlashi kerakligini qayd etib oʻtadi:

- qisqalik;
- aniqlik;
- shaxsiylik (shaxsiy tajribadan oʻtkazilgan mulohaza, boshqa hikmatlar mazmunini takrorlamasligi);
- falsafiylik;
- burilishga (fikrni oʻzgartira olishi, taʼsir etishi)ega boʻlishi kerak [Riacherd Nordquist. 2019].

Demak, ushbu fikrlardan va Gʻarb falsafasidan kelib chiqqan holda Kunbotish adabiyoti hikmatlari falsafiy-didaktik mazmun kasb etadi. Diniy-aqidaviy mazmun bevosita aqliy mushohadaga boʻysundirilgan. Masalan, XIX asrning shoiri, yozuchisi, sanʼat ustasi William Blake oʻzining "The marriage of heaven and hell" (Jannat va doʻzaxning nikohi) asarida hikmat (poverbs) janrining namunalaridan keng miqyosda foydalangan. Va aynan asarning shu qismi bilan katta salmoqda oʻqirmanlar eʼtibori va muhokamalariga sabab boʻlgan. Bir qarashdan nomi bilan ham kitobxon diqqatini jalb qilib oluvchi ushbu asar mazmuni diniy hukmlar va qarashlarni yozuvchi falsafasi bilan uygʻunlashtirgan. Asar mazmuniga qisqacha toʻxtalsak, u Doʻzax va Jannat haqida emas, balki inson xususida. Yozuvchi inson ikki qismdan iborat ekanligini bildirib, inson tanasini nafs va kuch boshchiligidagi yovuzlikning ramziy timsoli sifatida koʻrsatadi. Ruhi esa ezgulik mevasi ekanligini aytadi. Bir tanada nikohlangan inson ruhi va tanasi misolida shaytoniy va rabboniy fazilatlarining uygʻunlashuvi orqali inson yuksalishini va yashab qolishini ifoda etadi. Ushbu kuchlarning biri gʻolib boʻlishi har ikkala mohiyatni yoʻq boʻlishiga olib kelishini qayd etadi. Islomiy-tasavvufiy nuqtayi nazardan olib qaraganda ham inson ikki qismdan iborat. Farqli tomoni ushbu asarda tana tamomila doʻzaxni ifoda etsa, tasavvufiy Sharq olamida inson tanasining oʻzida Doʻzax va Jannat nikohi mavjud. Yaʼni inson suratini hosil qilishda "tuproq va suv" – Jannat mulki, "shamol va olov" – doʻzah mulki ishtirok etgan. Shu asosda "Tuproq" – sabr, umid, ezgu xulq, muruvvar ramzi. "Suv" – quvonch, saxovat, nazokat, birlik ramzi. "Shamol" – yolgʻon, ikkiyuzlamachilik, tantiqlik, sabrsizlik ramzi. "Olov" – nafs, kibr, taʼma, hasad ifodasi.

Ruh esa Gʻarbdagi kabi ilohiylik, ezgulikni ifodalaydi. Inson esa har doim yovuzlik, nafsoniy istak va qutqularga qarshi umri davomida kurashib, katarsisga erishishi, chinakam "Komil inson", (tasavvufda esa "fanofilloh) matlabiga yetishadi. «The marriage of heaven and hell» asarining umumiy gʻoyasini ushbu jumlar orqali ifodalash mumkin: "Ziddiyatlarsiz taraqqiyot yoʻq. Tortishish (Allohga) va itarish (Nafsga), aql va quvvat, sevgi va nafrat inson yashashi uchun zarurdir. Bunday qarama-qarshiliklar ezgulik va yovuzlik haqidagi diniy chaqiriqdan kelib chiqadi. Ezgulik aqlga boʻysunadi va u passiv boʻladi, yovuzlikni esa energiya boshqaradi va kuchga ega" [William Blake. 1906:11]. Asarda keltirilgan hikmatlarga eʼtibor qaratamiz. 1-hikmat: "Ekish paytida oʻrgan, oʻrim paytida oʻrgat, qishda rohatlan" [William Blake. 1906, 18] ushbu aforizm Navoiyning:

Yigitlikda yigʻ ilmning mahzani,

Qarilik chogʻi xarj qilgʻil ani.

hikmatiga mazmunan juda yaqin. Faqat Uilliam Blake oʻrta yosh davri haqiqatini ham keltirib oʻtgan. oʻrganilgan ilmni boshqalarga ham oʻrgatish orqali ilmning yanada ziyoda boʻlishiga ishora bor. Shuning uchun ham yozuvchi oʻrim payti yaʼni hosil yigʻish chogʻida yanada koʻp va zalvorli ilm(hosil)ga ega boʻlishni nazarda tutmoqda. Yana bir hikmat: "Qamoqxonalar qonun toshlaridan qurilgan, ishratxonalar esa din gʻishtlaridan" [William Blake. 1906, 19] hikmatida ikki qarama-qarshilikni uygʻunlikda ifodalaydi: davlat qonunlari va Alloh qonunlari. Har ikkalasi ham insoniy demokratiyani cheklaydi. Qatʼiy, qattiq, bosim bilan tuzilgan qonunlar insonning tanasini erkdan cheklasa, ruhoniylarning zohidona chaqiriqlari insonning kechinma, xohishlarini cheklaydi. Bu esa

ichkarida nafsoniy istaklarni to'planib, alanga olishiga, din va qonunlarni chetlab jtib yovuzlik tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytmoq lozimki, Sharq xalqlari adabiyoti mazmuni hikmat bulog'idan suv ichgan. Mumtoz adabiyotimizdagi har bir bayt mazmunidan hikmat isi uf urib turadi. Boisi mumtoz adabiyotimiz vakillarining barchasi islomni bilish bilan birga unga qattiq amal qilgan. Taqvo va futuvvatni o'zlariga libos qilgan. Botinni esa nubuvvat bilan bezagan. Komil inson bo'lmoq uchun shunday komil baytlar yaratganlarki, bular butun insoniyat shajaralari uchun ma'naviy ozuqa, Qur'on va hadislardan keyingi Rabboniy mazmun singdirilgan hayot mezoniga aylanib ulgurgan. Bugungi globallashgan, mobil internetning salbiy sarhadlari kengayayotgan, ma'naviyat va madaniyatlar bir-biriga aralashib ketayotgan asrda o'z milliyligimizni, axloqiy tarbiya va qadriyatlarimizni unutmaslik, nafs qutqulariga taslim bo'lmaslik uchun yosh avlodga hikmatlar orqali munosib ta'lim va tarbiyani bermoq lozim. Bu nafaqat o'quvchiga mumtoz asarlar badiiyatini tushunmoq uchun ilmlar kalitini beradi, balki, unga amal qilish orqali ma'naviy yetuklik, fikriy teranlikka boshlaydi.

Kunbotish adabiyotida esa hikmatlar mazmuni diniy-ma'rifiy ta'moyildan uzoqroq, falsafiy-demokratik mazmun kasb etadi. Insonning ma'naviy va ruhiy erkinligi barcha narsadan, hatto diniy qoidalaridan ham ustun qo'yilgan. Sharqdagi kashfu shuhud bilan his qilinib, anglanadigan haqiqatlar G'arbda aqlu zakovat, mantiq chig'irig'i orqali oydinlashadi. Hikmatlarda ham bu fikrlar o'z amaliy tasdig'ini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
4. Mirzo Xayrullo Xo'qandiy. Yigirma hikmat. Tuxfat-ul atfol. – Toshkent: Yozuvchi, 1992.
5. Muhammadiyeva M. Qushlar obrazi poetikasi. PhD diss. – Toshkent, 2026.
6. Nosiruddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. – Toshkent: Yozuvchi, 1990.
7. Rauf Parpi. Turkiston yodi. Elektron havola: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborakin/17-dekabr-boymirza-hayit-tugilgan-kun-rauf-parfi-ona-turkiston.html>
8. Sheroziy Sa'diy. Guliston. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. // www.ziyouz.com.
9. Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: o'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990.
10. Reacherd Nordquist. Definition and examples of aphorisms. ThoughtCo, 2019.
11. William Blake. The marriage of heven and hell. – Boston: John W. Luce and company, 1906.